

BUDJET IJROSI NAZORATINING SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Rizayev Nurbek Kadirovich
O'zbekiston Respublikasi bank-moliya
akademiyasi "Buxgalteriya hisobi
va audit" kafedrasini mudiri

Abdumannopov Kamronbek G'ayratjon o'g'li
O'zbekiston Respublikasi bank-moliya
akademiyasi tinglovchisi
Tel: 93 698-29-99

Annotatsiya. Ushbu maqolada budjet tizimi budjetlari ijrosi hisobi va nazorati jarayonini tashkil etishning dolzarb masalalari va vazifalari, prinsiplari, budjet tashkilotlarida buxgalteriya bo'limlari bo'yicha tekshiruvni takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan amaliy ishlar jarayonini tashkil etishning dolzarb masalalari hamda ilmiy va uslubiy jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: budjet, budjet nazorati, budjet taqchilligi, moliya, nazorat organi, daromadlar va xarajatar smetasi.

Mamlakatimizda bugungi globallashuv jarayonida davlat budjet siyosatida olib borilayotgan islohotlar budjet tashkilotlarida amalga oshirilayotgan nazorat tadbirlarini yanada takomillashtirish, budjet ijrosi nazoratini tubdan isloh qilish va uning samaradorligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy asoslar olib borilayotgan ishlar buning yaqqol dalilidir.

Davlat budjetining barpo etilganligi, budjet tizimi faoliyatini ta'minlashda budjet loyihasini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijro etilishini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinishiga tegishli bo'lgan davlat hokimiyat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari hamda budjet jarayoni ishtirokchilarining faoliyati samarali tashkil qilinganligi budjet jarayoni munosabatlarini ta'minlab berdi.

Davlat moliyaviy nazorati byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlarining moliyaviy nazorat ob'ektlari tomonidan buzilishi hollarini aniqlash, bartaraf etish va unga yo'l qo'ymaslik maqsadida davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazorati:

respublika darajasida — O'zbekiston Respublikasi respublika budjetining, davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining va respublika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg'armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan;

mahalliy darajada — Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlaridan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari budjetdan tashqari jamg'armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan amalga oshiriladi.

Budjet ijrosi jarayonida Davlat budjeti mablag'lari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari shakllanishi hamda sarflanishini uzluksiz hisobga olish, ularni hujjatlashtirish va axborotlarni tizimli shakllantirish uchun budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi tashkil etilgan. Budjet mablag'laridan oqilona va samarali foydalanish, budjet taqchilligini oldini olish dolzarb masalalardan biri sanaladi. "Albatta, Davlat budjeti o'lchovsiz emas, mablag'larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatishni ta'minlash zarur. Bu – hammaga ravshan va rad etib bo'lmaydigan haqiqat"¹- deydi Prezident Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqlarida. Shuningdek, budjet tashkiloti qonunchilikka muvofiq budjetdan tashqari mablag'lar yuzasidan tashkil bo'lish manbalari va foydalanish yo'nalishlari ko'rsatilgan holda budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetalar doirasida xarajatlarni amalga oshiradi. Oxirgi yillarda davlat moliyasini isloh qilish loyihasini amalga oshirish doirasida so'nggi natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tamoyillarining joriy qilinishi, budjetining g'azna ijrosiga o'tilishi, o'rta muddatli budjet istiqbollari belgilash siyosatining ilgari surilishi, davlat hamda budjet siyosatidagi boshqa o'zgarishlarning amalga oshirilishi budjet tashkilotlarida o'z xarajatlarini aniqlash va smetalarni ishlab chiqish, budjetdan tashqari mablag'larni safarbar qilish tartiblarini takomillashtirishni talab etmoqda.

Budjet ijrosi jarayoni xaqida axborotlar budjet hisobini tashkil qilish va yuritish orqali shakllantiriladi. Bunda, belgilangan budjet tasnifi bo'yicha budjet daromadlari shakllantiriladi va xarajatlar amalga oshiriladi. Budjet hisobini alohida xususiyatlaridan biri – budjet ijrosini to'g'ri tashkil etish, moliya budjet intizomiga rioya qilish va nazorat funksiyasini amalga oshirilishidir.

Malikov T.S., Haydarov N.Hning ta'kidlashicha: Budjet jarayoni, odatda, budjet faoliyatining quyidagi to'rt bosqichini o'z ichiga oladi:

-budjet loyihasini tuzish (ishlab chiqish, yaratish);

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishining asosiy yakunlari va 2017 yilga no'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi.16.01.2017.

- budjetni ko'rib chiqish (muhokama qilish) va tasdiqlash;
- budjetni ijro etish;
- budjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash.

Budjet jarayonining davomiyligi yuqoridagi to'rt bosqichning barchasidan iborat bo'lib, odatda, uch yilga yaqin davom etadi. Buning bir yilga yaqini budjet loyihasini ishlab chiqish (yaratish, tuzish), uni muhokama qilish (ko'rib chiqish) va tasdiqlash (qabul qilish)ga, bir kalendar yili (1 yanvardan 31 dekabrgacha) budjetni ijro etishga (budjet davri) va sakkiz oyga yaqini budjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlashga va uni tasdiqlashga to'g'ri keladi².

Budjet ijrosi davomida davlat ishlab chiqarishni intensivlashtirish va samaradorligini oshirish hisobidan resurslarning oshishidan, mablag'larni sarflashda iqtisod rejimiga rioya qilinishidan, soliqli daromadlarning to'liq jalb qilinishidan manfaatdordir.

Nazorat funksiyasi orqali budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish, mulklarni saqlanishi va tayinlanishi bo'yicha sarflanishi tizimi yo'lga qo'yiladi. Budjet hisobida ham yuqorida qayd etilganidek, nazoratning uch turi qo'llaniladi:

- dastlabki nazorat;
- joriy nazorat;
- keyingi nazorat.

Dastlabki nazorat – smetalarni tuzish va tasdiqlash jarayonida amalga oshiriladi. Unda budjet intizomiga rioya qilinishi, shuningdek, qonunchilik talablari buzilishi oldi olinadi.

Joriy nazorat – budjet ijrosi jarayonida amalga oshirilib, sodir bo'lgan muomalalarni qonuniyligi, pul mablag'larini oqilona sarflanishi, mulkiy qiymatliklar bo'yicha hisob ma'lumotlarini xaqiqiy holatga mosligi, hisoblashuvlar holati va boshqalar nazorati amalga oshiriladi.

Keyingi nazorat – umumlashtirish bosqichi uchun zarur bo'lib, hisob va hisobot axborotlarini qonuniyligini aniqlash uchun amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazorati taftish, tekshirish (shu jumladan budjet to'g'risidagi qonun hujjatlarining avvalgi taftishda yoki tekshirishda aniqlangan buzilishi hollarini bartaraf etish yuzasidan nazorat tartibidagi tekshirish) va o'rganish shaklida amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazorat organlari moliyaviy nazorat ob'ekti mansabdor shaxslarining harakatlarida jinoyat alomatlari bo'lgan huquqbuzarliklar aniqlangan taqdirda nazorat materiallarini huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshiradi.

² Malikov T.S., Haydarov N.H. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma "IQTISOD MOLIIYA", 2008, 84 b

Mazkur maqola orqali shuni xulosa qilib keltirish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotining ko'plab soha va tarmoqlarida keng qamrovli iqtisodiy islohatlar olib borilayotgan va ularning natijalari iqtisodiy ko'rsatkichlarga o'zining ta'sirini ko'rsatayotgan bir davrda davlat budjeti qonunchiligini mustahkamlab va takomillashtirib borish davlat moliyasi tizimining isloh qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi.